

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“O‘SIMLIKLAR KARANTINI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 20-iyunda qabul qilingan
Senat tomonidan 2018-yil 28-iyunda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi 113-I-sonli **Qonuniga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 188-modda; 1996-yil, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 4-5, 126-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, № 12, 472-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda) o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (**ilova** qilinadi).

2-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin;
ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 9-iyul,
O‘RQ-484-son

O‘simliklar karantini to‘g‘risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi o‘simliklar karantini sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. O‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

O‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining o‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

karantin ostidagi mahsulot — o‘simliklar karantini obyektlarini tashuvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘simliklar, ularning qismlari, ekish materiallari, qayta ishlash mahsuloti, boshqa mahsulot va yuklar;

karantin ruxsatnomasi — karantin ostidagi mahsulotni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o‘tishga ruxsat berilganligini tasdiqlaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan hujjat;

karantin cheklovlari — karantin ostidagi mahsulotni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishni, O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishni, tashishni va ulardan foydalanishni o‘simliklar

karantini obyektlari tarqalishining oldini olish maqsadida muayyan muddatga cheklovchi fitosanitariya tadbirlari;

o'simliklar karantini — qishloq xo'jaligiga va boshqa o'simliklar dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantini obyektlari kirib kelishining, tarqalishining oldini olishga hamda bunday obyektlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui;

o'simliklar karantini obyekti — dunyoda karantin ahamiyatiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo'lmagan yoki cheklangan tarzda tarqalgan zararli organizmlar;

o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchilar — o'simliklar karantini obyektlarining tarqalishiga imkoniyat tug'dirishi mumkin bo'lgan transport vositalari, qishloq xo'jaligi mashinalari, yerga ishlov berish qurollari, idishlarning barcha turlari, ayrim sanoat tovarlari, qadoqlash vositalari, shuningdek o'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar, yaxlit toshlar, tuproq namunalari va (yoki) boshqa obyektlar;

fitosanitariya sertifikat — karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

fumigatsiya — o'simliklar karantini obyektlarini va boshqa zararli organizmlarni yo'q qilish maqsadida ularni kimyoviy vositalarning gazlari bilan zararsizlantirish.

4-modda. Fitosanitariya talablari

Karantin ostidagi mahsulotga, uni olib kirishga, olib chiqishga, ishlab chiqarishga, qayta ishlashga, saqlashga, tashishga, realizatsiya qilishga va yo'q qilishga doir talablarni belgilaydigan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar fitosanitariya talablaridir.

Oldingi tahrirga qarang.

Fitosanitariya talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi.

Fitosanitariya talablari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida majburiy tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi va ijobiy xulosa olinganidan keyin hisobga qo'yiladi.

Fitosanitariya talablari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

(4-moddadan ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvardagi O'RQ-666-sonli Qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2021-y., 03/21/666/0032-son)



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari va tovarlarni o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom".

2-bob. O'simliklar karantini sohasini tartibga solish

5-modda. O'simliklar karantini sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'simliklar karantini sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- o'simliklar karantini sohasidagi tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- o'simliklar karantini bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;
- tashqi va ichki o'simliklar karantini bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- o'simliklar karantini sohasida fitosanitar xavfsizlikni ta'minlash;
- o'simliklar karantini sohasida samarali monitoring olib borish tizimini ishlab chiqish;
- o'simliklar karantini sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'simliklar karantini sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

o'simliklar karantini sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining o'simliklar karantini sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

o'simliklar karantini sohasidagi hujjatlarni, xususan, karantin ruxsatnomasini, transport birliklarini ochish to'g'risidagi dalolatnomani, karantin ko'rigi dalolatnomasini, fitosanitariya sertifikatini, ichki fitosanitariya sertifikatini va reeksport uchun fitosanitariya sertifikatini berish tartibini belgilaydi;

o'simliklar karantini sohasida monitoringni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududlarini o'simliklar karantini ostida deb e'lon qiladi hamda zarur karantin cheklovlarini o'rnatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'simliklar karantini sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

o'simliklar karantini sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

o'simliklar karantini davlat inspektorlarining taqdimnomalariga ko'ra tegishli hududlarni o'simliklar karantini ostida deb e'lon qiladi va zarur karantin cheklovlarini o'rnatadi;

o'simliklar karantiniga doir tadbirlarni o'tkazishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning o'simliklar karantiniga doir tadbirlarni o'tkazishdagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda o'simliklar karantini sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

tegishli hudud aholisini o'simliklar karantini obyektlari tarqalganligi to'g'risida xabardor qilishda o'simliklar karantini davlat inspektorlariga ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarni o'tkazishda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantini obyektlarining kirib kelishidan yoki tarqalishidan himoya qilishda (fitosanitar xavfsizlik) davlat organlariga va boshqa organlarga zarur yordam ko'rsatishi mumkin.

3-bob. O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi va unga rahbarlik qilish

9-modda. O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi

O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimini:

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari;

O'simliklar karantini ilmiy markazi;

avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlari va pochtaamtdagi o'simliklar karantini punkti tashkil etadi.

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari O'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga, shuningdek tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bo'ysunadi.

O'simliklar karantini ilmiy markazi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga bo'ysunadi.

Tumanlar va shaharlarning o'simliklar karantini davlat inspektorlari, avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlari va pochтамtdagi o'simliklar karantini punkti tegishincha yuqori turuvchi o'simliklar karantini davlat inspeksiyalariga bo'ysunadi.

10-modda. O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatiga rahbarlik qilish

O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatiga rahbarlikni O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatiga rahbarlikni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining boshliqlari O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi. Tumanlar va shaharlarning o'simliklar karantini davlat inspektorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi.

Avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlaridagi va pochтамtdagi o'simliklar karantini punktidagi o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatiga o'simliklar karantini tegishli chegara punktlarining O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan mudirlari boshchilik qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi to'g'risida nizam".

11-modda. O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining vakolatlari

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi:

o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

o'simliklar karantini bo'yicha dasturlar va tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, bu dasturlar va tadbirlarning O'zbekiston Respublikasi hududida o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgar bo'ladi;

o'z vakolatlari doirasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi, yo'riqnomalarni, o'simliklar karantini qoidalarini va fitosanitariya talablarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi hamda tashkilotlar va aholi e'tiboriga yetkazadi;

karantin ostidagi mahsulotni olib kirish chog'idagi o'simliklar karantini qoidalarini belgilaydi, xalqaro savdo kontraktlariga (shartnomalariga) O'zbekiston Respublikasining hududiga o'simliklar karantini obyektlari kirib kelishining va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan talablar kiritilishini ko'rib chiqadi, shuningdek xulosalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari, karantin ostidagi mahsulotlar va ularning tarqalish hududlari ro'yxatini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

fitosanitariya talablarini tasdiqlaydi;

avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlari va pochтамtdagi o'simliklar karantini punkti, shuningdek o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

karantin ruxsatnomasini beradi;

o'simliklar karantini sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, xalqaro tashkilotlarda o'simliklar karantini bo'yicha O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini himoya qiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'linmalarini tashkil etadi, o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurash olib borishda tomorqa, fermer va dehqon xo'jaliklariga, o'rmon xo'jaliklariga, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatadi;

(11-modda birinchi qismining o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-apreldagi O'RQ-681-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2021-y., 03/21/681/0264-son)

eksportga jo'natilayotgan va xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotning hamda o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchilarning karantin tekshiruvini va laboratoriya ekspertizasini o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasi hududlarini karantindagi hududlarga va mikrohududlarga bo'lib chiqadi;

karantindagi zararkunandalarga, o'simliklar kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi kurashish borasidagi ilm-fan yutuqlarini va ilg'or tajribani, innovatsion uslublar, vositalar va usullarni targ'ib qilish hamda ishlab chiqarishga keng joriy etishga, aholi o'rtasida o'simliklar karantini obyektlari to'g'risidagi bilimlarni tarqatishga doir ishlarni tashkil etadi;

tegishli hududda karantinni joriy etish (bekor qilish) to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdimnomalar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda o'simliklar karantini, karantin cheklovlarini qo'llash bo'yicha har yilgi dasturlarni hamda tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlar ro'yxatini, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi taqiqlangan ekish materiallari, karantin ostidagi mahsulotlar va ularning tarqalish hududlari ro'yxatini, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining vakolatlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari:

karantin ostidagi mahsulotni saqlash, qayta ishlash, realizatsiya qilish, qabul qilish punktlari joylashgan yerlarni va ularga tutash hududlarni, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni, o'rmon fondining, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlarini o'simliklar karantini obyektlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida nazorat tekshiruvlaridan o'tkazishni tashkil etadi;

aniqlangan zararlanish o'choqlarining kengayishiga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish, shuningdek o'simliklar karantini obyektlarini olib kirish yo'llarini aniqlash hamda to'sish bo'yicha shoshilinch choralar ko'radi;

fitosanitariya sertifikatini, ichki fitosanitariya sertifikatini, reeksport uchun fitosanitariya sertifikatini, transport birliklarini ochish to'g'risidagi dalolatnomani va karantin ko'rigi dalolatnomasini beradi;

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan keladigan karantin ostidagi mahsulotni sog'lomlashtirish va zararsizlantirish, shuningdek transport vositalarini zararsizlantirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududni o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilish (karantinni bekor qilish), zarur karantin cheklovlarini qo'llash to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdimnomalar yuboradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. O'simliklar karantini ilmiy markazi

O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatining ilmiy ta'minotini O'simliklar karantini ilmiy markazi amalga oshiradi.

O'simliklar karantini ilmiy markazi o'simliklar karantini obyektlarining bioekologik xususiyatlarini va ularga qarshi kurashish usullarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

O'simliklar karantini ilmiy markazi o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish sohasi xodimlarining kasbiy bilimlari va malakasi oshirilishini, o'simliklar karantini obyektlari to'g'risidagi bilimlarning aholi o'rtasida tarqatilishini ta'minlaydi.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidagi o'simliklar karantini punktlari

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan karantin ostidagi mahsulotni (shu jumladan tranzit yuklarni) tekshirish o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan o'simliklar karantini chegara punktlarida o'tkaziladi.

O'simliklar karantini chegara punkti O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi punktida, ichki hududlararo chegara punktlarida tashkil qilinadi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan xonalar bilan, tekshiruvlar o'tkazish va namunalar olish, fitosanitariya ekspertizasini va fumigatsiya ishlarini amalga oshirish uchun vositalar, aloqa vositalari va Internet tarmog'i bilan ta'minlanadi.

O'simliklar karantini davlat inspektori fitosanitariya sertifikatining qalbakiligini, belgilangan talablarga muvofiq emasligini aniqlagan yoki karantin ostidagi mahsulotlarda o'simliklar karantini obyektlari mavjudligi to'g'risida shubha bo'lgan taqdirda, ushbu karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini tegishli chegara punktida ushlab turiladi va bu haqda O'simliklar karantini davlat inspeksiyasiga xabar beriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-martdagi PQ-3626-son qarori bilan tasdiqlangan "Avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portidagi o'simliklar karantini bo'yicha chegara punktlari hamda pochtaamtdagi punkt ro'yxati".

15-modda. O'simliklar karantini davlat inspektorlari

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektoridir, uning o'rinbosarlari va O'simliklar karantini ilmiy markazining direktori O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining o'rinbosarlaridir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining boshliqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlaridir.

Tumanlar va shaharlar o'simliklar karantini davlat inspektorlari o'z faoliyatini tegishli hududda amalga oshiradi.

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining agronomlari, avtomobil yo'llaridagi, temir yo'l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o'simliklar karantini chegara punktlarining, shuningdek pochtaamtdagi o'simliklar karantini punktining mudirlari va agronomlari,

o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'linmalarining boshliqlari va mutaxassislari o'simliklar karantini davlat inspektorlaridir.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-iyundagi 489-son qarori bilan tasdiqlangan "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati inspektorlarining formalı kiyim-boshlari va farqlash belgilari namunalari va tavsifi".

16-modda. O'simliklar karantini davlat inspektorlarining huquqlari

O'simliklar karantini davlat inspektorlari o'z vakolatlari doirasida quyidagilarga haqli:

karantin ostidagi mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning hududiga moneliksiz kirishga;

o'simliklar karantini qoidolari va fitosanitariya talablarining buzilishlarini bartaraf etish hamda ularning oldini olish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritishga;

laboratoriya tekshiruvlari va tegishli ekspertiza o'tkazish uchun karantin ostidagi mahsulotdan namunalar olishga;

o'simliklar karantini obyektlari aniqlanganda o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq karantin cheklovlari o'rnatishga, olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotni ushlab turishga, olib qo'yishga yoki qaytarib yuborishga;



LexUZ sharhi

Qarang: Karantin ostidagi mahsulotni olib qo'yish, qaytarib yuborish va yo'q qilish tartibi to'g'risidagi nizom (31.10.2019-y., ro'yxat raqami 3191).

kirib kelayotgan va jo'natilayotgan, ushbu Qonunning 20-moddasiga muvofiq o'simliklar karantiniga doir tadbirlar tatbiq etiladigan yuklar to'g'risida bojxona organlaridan, temir yo'l stansiyalarining, avtovokzallarning (avtostansiyalarning), aeroportlarning, daryo portlarining (pristanlarining), pochтамtlarning, dehqon bozorlarining va boshqa tashkilotlarning ma'muriyatlaridan ma'lumotlar talab qilishga;

zarur bo'lgan taqdirda karantin ostidagi mahsulotni ko'zdan kechirish va zararsizlantirish ishlarini amalga oshirish uchun yordamchi ishchilar, xizmat xonalari va yordamchi materiallar berilishini yuklarning egalaridan talab qilishga.

O'simliklar karantini davlat inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi to'g'risida nizam"ning 4-bobi.

17-modda. O'simliklar karantini davlat inspektorlarining majburiyatlari

O'simliklar karantini davlat inspektorlari:

o'simliklar karantini obyektlarining o'simliklar karantini obyektlaridan xoli bo'lgan hududga kirib kelishining oldini olish bo'yicha zarur choralar ko'rishi;

o'simliklar karantini obyektlariga tashxis qo'yish maqsadida laboratoriya tekshiruvlari va boshqa tekshiruvlar o'tkazilishini tashkil etishi;

tegishli organlar va tashkilotlarni chegaraoldi hududlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan karantin holati to'g'risida xabardor qilishi, o'simliklar karantiniga doir tadbirlarni amalga oshirishi hamda zarur tavsiyalar berishi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur fitosanitariya talablarini bajarish to'g'risida taqdimnomalar yuborishi;

o'simliklar karantini qoidalariga nomuvofiqlik va fitosanitariya talablari buzilganligi faktlari aniqlanganda temir yo'l vagonlaridan, kemalardan, samolyotlardan va boshqa transport vositalaridan foydalanishga doir taqiq o'rnatishi shart.

O'simliklar karantini davlat inspektorlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi to'g'risida nizom"ning 4-bobi.

4-bob. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o'simliklar karantini sohasidagi huquq va majburiyatlari

18-modda. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o'simliklar karantini sohasidagi huquqlari

Karantin ostidagi mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

zarur hollarda, o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati vakillari bilan birgalikda o'simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya talablari so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

o'simliklar karantini obyektlarini aniqlash uchun o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatidan karantin ostidagi mahsulotni saqlash, qayta ishlash, realizatsiya qilish va qabul qilish punktlari joylashgan yerlarni, ularga tutash hududlarni, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni, o'rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlarini nazorat tekshiruvlaridan o'tkazishni talab qilish;

o'simliklar karantini obyektlari to'liq yo'q qilinganidan keyin o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga karantin cheklovlarini bekor qilish bo'yicha takliflar kiritish.

Karantin ostidagi mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

19-modda. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning o'simliklar karantini sohasidagi majburiyatlari

Karantin ostidagi mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar:

o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati nazorati ostida tekshirishga (ko'zdan kechirishga) va o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashishga doir ishlarni, shuningdek ushbu karantin obyektlari tarqalishining oldini olishga doir tadbirlarni amalga oshirishi;

belgilangan tartibda karantin ruxsatnomasi va (yoki) ichki fitosanitariya sertifikatini olinmagan karantin ostidagi mahsulotni qabul qilmasligi;

xorijiy mamlakatlardan va O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududlaridan karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda o'simliklar karantini qoidalariga rioya qilishi;

tegishli yuklar saqlanadigan omborxonalarda har yili kamida bir marta profilaktik fumigatsiya ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirishi shart.

Karantin ostidagi mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi o'simliklari, dorivor o'simliklar, daraxt va butalar yetishtirish, o'simliklarning yangi navlari seleksiyasi bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar o'simliklar karantini obyektlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida ekinlar va daraxtlarni tizimli ravishda kuzatib borishni amalga oshirishi, ular aniqlangan taqdirda esa bu haqda mahalliy davlat hokimiyati organlarini, o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatini darhol xabardor qilishi, shuningdek aniqlangan o'simliklar karantini obyektlarini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rishi shart.

5-bob. O'simliklar karantiniga doir tadbirlar va ularni amalga oshirish

20-modda. O'simliklar karantiniga doir tadbirlar

O'simliklar karantiniga doir tadbirlarning maqsadi o'simliklar karantini obyektlarining xorijiy mamlakatlardan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini obyektlari tarqalgan hududidan O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini obyektlaridan xoli bo'lgan hududlariga kirib kelishi natijasida zarar yetkazilishi xavfining oldini olish, uni cheklash va bartaraf etishdan iborat.

O'simliklar karantiniga doir tadbirlar:

tabiiy sharoitlardagi mavjud o'simlik dunyosiga, qishloq xo'jaligiga, o'rmonlarga, dorivor, manzarali o'simliklarga, shu jumladan ularning urug'lari, ko'chatlari va qismlariga (qalamchasi, piyozi, tugunagi, mevasiga va boshqalarga), shuningdek o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchi bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa o'simlik mahsulotiga;

tirik zamburug'larga, bakteriyalar, viruslar, nematodalar, kanalar, hasharotlarga;

hasharotlarning, o'simliklar kasalliklarini qo'zg'atuvchilarning kolleksiyalariga va ular yetkazadigan zararlarning namunalariga, shuningdek gerbariyalarga va urug'larning kolleksiyalariga;

xorijiy mamlakatlardan va O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududlaridan kirib kelayotgan o'simliklarga, qishloq xo'jaligi mashinalariga, yerga ishlov berish qurollariga, idishlarning barcha turlariga, ayrim sanoat tovarlariga, qadoqlash vositalariga, shuningdek o'simlik materiallaridan tayyorlangan buyumlarga, yaxlit toshlarga, tuproq namunalariga, transport vositalariga hamda boshqa o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchilarga;

o'simlik mahsulotini yetishtiradigan, tayyorlaydigan, g'amlaydigan, qayta ishlaydigan hamda realizatsiya qiladigan korxonalar va tashkilotlarning hududlari va binolariga, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga va o'rmon fondi yerlariga, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga, shuningdek qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilmaydigan yerlarga (yo'llarga, elektr o'tkazgichlar atrofidagi yerlarga va boshqalarga) hamda davlatning chegaraoldi hududlariga nisbatan tatbiq etiladi.

21-modda. Karantin o'rnatish va uni bekor qilish tartibi

O'simliklar karantini obyektlari aniqlangan hollarda tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan fermer va dehqon xo'jaliklarining, o'rmon xo'jaliklarining hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalari, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portlari, shaharchalar, posyolkalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek ularga tutash hududlar o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilinadi yoki ularda zarur karantin cheklavlari o'rnatiladi.

Tumanlar va shaharlarni o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilish yoki karantin cheklavlarini o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining hududlarini o'simliklar karantini ostida deb e'lon qilish yoki karantin cheklovini o'rnatish O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

O'simliklar karantini ostida deb e'lon qilingan hududda o'simliklar karantini o'chog'ining tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi, unga tutash hududlarda o'simliklar karantini obyektlari tarqalishining oldini olishga va ularni yo'q qilishga qaratilgan o'simliklar karantiniga doir tadbirlar o'tkaziladi.

Karantin ostidagi mahsulotni karantin cheklovlari o'rnatilgan hududlardan olib chiqish va ulardan foydalanish shartlari o'simliklar karantini qoidalari va fitosanitariya talablari asosida amalga oshiriladi, bundan zararlangan mahsulot mustasno.

Zararlangan mahsulotdan foydalanish shartlari o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan belgilanadi.

Hududda o'rnatilgan karantin cheklovlari o'simliklar karantini bo'yicha zarur tadbirlar o'tkazilganidan va o'simliklar karantini obyektlari to'liq yo'q qilinganidan keyin, tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlarining taqdimnomalariga ko'ra cheklovlar o'rnatgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

22-modda. Fitosanitar dala nazorati va uni tashkil etish

Fitosanitar dala nazorati o'simliklarning va o'simlik mahsulotining fitosanitar tozaligini ta'minlash, ularda o'simliklar karantini obyektlarining mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Fitosanitar dala nazorati o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Fitosanitar dala nazorati o'tkazilganidan keyin dalolatnoma tuziladi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlar belgilanadi.

23-modda. O'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari

O'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari karantin ostidagi mahsulotning qismlarini va (yoki) namunalarini ular zararlanganligini yoki zararlanmaganligini, ularda o'simliklar karantini obyektlari mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadqiqotlardan iborat va bu tadqiqotlar qonun hujjatlariga muvofiq akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda o'tkaziladi.

O'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari:

karantin ostidagi mahsulotning o'simliklar karantini qoidalariga hamda fitosanitariya talablariga muvofiqligini aniqlash;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'simliklar karantini sohasida monitoring olib borish;

fitosanitar xavfni tahlil qilish;

fitosanitariya sertifikatini berish;

karantin ruxsatnomasini berish;

ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadida o'tkaziladi.

O'simliklar karantini sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

24-modda. Karantin ostidagi mahsulotning fumigatsiyasi

Karantin ostidagi mahsulot olib kirilayotganda, O'zbekiston Respublikasi hududida tashilayotganda, olib chiqilayotganda transport vositalaridagi va bo'sh omborlardagi fumigatsiya ishlari faqat o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilib, ularning yakuni bo'yicha zararsizlantirish to'g'risidagi dalolatnoma rasmiylashtiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 5-bobi.

25-modda. O'simliklar karantini sohasida monitoring yuritish

O'zbekiston Respublikasi hududida o'simliklar karantini sohasida monitoring yuritish o'simliklar karantini obyektlarini aniqlash, kuzatish, tahlil qilish, baholash va ularning tarqalishini prognoz qilish tizimidan iboratdir.

O'simliklar karantini sohasidagi monitoring:

o'simliklar karantini obyektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishiga, tarqalishiga hamda bioekologik xususiyatlarga ta'sir ko'rsatishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash va baholash;

o'simliklar karantini obyektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelish yo'llarini va tarqalgan hududlarni aniqlash;

o'simliklar karantini obyektlari o'choqlarini aniqlash;

o'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

fitosanitar xavfni aniqlash va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-fevraldagi 99-son qarori bilan tasdiqlangan Fitosanitar xavfni tahlil qilish, fitosanitariya choralari qo'llash va bekor qilish tartibi to'g'risida nizom.

O'simliklar karantini sohasidagi monitoring O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. O'simliklar karantini sohasidagi axborotning ochiqligi

26-modda. Axborotdan foydalanish

O'simliklar karantini sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ hujjatlar, shu jumladan fitosanitariya talablari, shuningdek karantin ostidagi hududlar, o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda o'simliklar karantini sohasidagi boshqa axborot ommaviy axborot vositalarida va O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

27-modda. O'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruza

O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruzani tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududining fitosanitar holati to'g'risidagi milliy ma'ruza haqidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

7-bob. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish va olib chiqish

28-modda. Olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulotga nisbatan talablar

Olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini obyektlaridan xoli bo'lishi hamda uning har bir turkumi fitosanitariya sertifikatlarining asl nusxalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Karantin ostidagi mahsulot olib kirilayotganda, olib chiqilayotganda va tranzit tarzida olib o'tilayotganda o'simliklar karantini qoidalariga hamda fitosanitariya talablariga rioya qilinishi kerak.

29-modda. Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish

Karantin ostidagi mahsulotni olib kirishga karantin ruxsatnomasi, eksport qiluvchi mamlakatning o'simliklar karantini va ularni himoya qilish bo'yicha davlat organlari tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikati yoki guvohnomasi mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

O'simliklar karantini va ularni himoya qilish bo'yicha davlat organlariga ega bo'lmagan xorijiy mamlakatlardan karantin ostidagi mahsulotni olib kirishga O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan karantin ostidagi mahsulotning har bir turkumiga alohida-alohida beriladigan karantin ruxsatnomasi mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar karantin ostidagi mahsulotni olib kirishda:

karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berishga yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o'tishga doir savdo shartnomalariga (kontraktlariga) o'simliklar karantini obyektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishining oldini olishni ta'minlaydigan fitosanitariya talablarini kiritishi;

xorijiy mamlakatlardan karantin ostidagi mahsulotni xarid qilish chog'ida, zarur bo'lgan taqdirda, bu mamlakatlardagi karantin ostidagi mahsulotning fitosanitar holatini o'rganish uchun o'simliklar karantini bo'yicha mutaxassislarni yuborishni nazarda tutishi shart.

Olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini chegara punktlarida o'simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish amalga oshiriladigan o'simliklar karantini chegara punktlari O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shni davlatlardan o'simliklar karantini obyektlarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelishi va tarqalishi tahdidi yuzaga kelgan taqdirda, vakolatli organlarning qaroriga ko'ra xavf tug'diruvchi uchastkalardagi chegara vaqtincha yopib qo'yiladi.

O'simliklar karantini obyektlari aniqlangan karantin ostidagi mahsulotni olib kirish taqiqlanadi, bundan ularning ilmiy maqsadlarda olib kirilayotgan namunalari mustasno.

Urug'liklarni va ekish materiallarini xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolarga pochta jo'natmalarida yuborish, shuningdek yuk bilan olib o'tish taqiqlanadi. O'simliklar karantini obyektlari bilan zararlanmagan ayrim mevalarni, yangi ho'l meva va sabzavotlarni yo'lovchilarning qo'l yukida o'tkazishga o'simliklar karantini davlat inspektori tomonidan ruxsat beriladi. Alohida qimmatga ega bo'lgan urug'lar, o'simliklar yoki ekish materiallari ilmiy-tadqiqot muassasalarining manziliga yo'llangan taqdirda, ular o'simliklar karantini davlat inspektorining xulosasiga ko'ra introduksiya karantin ko'chatxonasiga tekshirish uchun yuborilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari va savdo vakolatxonalari tomonidan karantin ostidagi mahsulotni xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga yuk bilan olib kirish va pochta orqali jo'natish, mamlakat ichida tashish hamda undan foydalanish o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari aniqlangan taqdirda, ular belgilangan tartibda bir sutka ichida majburiy fumigatsiya qilinadi yoki boshqa usullar bilan zararsizlantiriladi, begona o'tlardan tozalanadi, yashirin zararlanishlarni aniqlash va sog'lomlashtirish maqsadida oranjereyalarga va karantin ko'chatxonalariga o'simliklar karantini qoidalariga muvofiq ekiladi. Bu o'simlik materialiga texnik jihatdan ishlov beriladi yoki ulardan hududi o'simliklar karantini obyektlari tarqalishi xavfidan xoli bo'lgan tumanlarda foydalaniladi. Yashirin zararlanishni aniqlash alohida hollarda laboratoriya tekshiruvi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Olib kirilgan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan ishchi kuchidan, transportdan, xonalardan va yordamchi materiallardan foydalanish tegishli yukni oluvchilar yoki karantin ostidagi mahsulotni jo'natuvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

Karantin ostidagi mahsulot mavjud bo'lgan tranzit yuklar o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkazilishi lozim. O'simliklar karantini obyektlari aniqlangan taqdirda, mazkur yuklar ushlab turilishi, zararsizlantirilishi yoki uni eksport qilgan mamlakatga qaytarib yuborilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 3, 4-boblari.

30-modda. Karantin ostidagi mahsulotni olib chiqish

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulot o'simliklar karantini qoidalariga, fitosanitariya talablariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantini sohasidagi xalqaro shartnomalari qoidalariga muvofiq bo'lishi hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi taqiqlangan karantin ostidagi mahsulotlar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lishi kerak.

Karantin ostidagi mahsulotning har bir turkumiga belgilangan namunadagi fitosanitariya sertifikatini ilova qilingan bo'lishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish tartibi to'g'risidagi nizom".

Oldingi tahrirga qarang.

(30-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O'RQ-603-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son)

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

31-modda. O'simliklar karantini sohasidagi xalqaro hamkorlik

O'simliklar karantini sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

32-modda. O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimini moliyalashtirish

O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

O'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus fumigatsiya bo'linmalari zararsizlantirish bo'yicha bajarilgan ishlardan olingan tushumlar hisobidan to'liq o'zini o'zi moliyalashtirish asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish va fitosanitar xavfsizlikni ta'minlash uchun har yili O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan mablag'lar ajratiladi.

O'simliklar karantini sohasida ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan olingan daromadlar o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati tizimi xodimlarini rag'batlantirishga, o'simliklar karantini davlat inspeksiyalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarning o'rnini qoplashga sarflanadi.

O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatining olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o'tilayotgan karantin ostidagi mahsulotni tekshirish hamda ko'zdan kechirish, shuningdek zarur hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlarning o'rnini tegishli yuridik va jismoniy shaxslar mablag'lari hisobidan qoplanadi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-yanvardagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining O'simliklar karantini tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"ning 3-bobi.

33-modda. Nizolarni hal etish

O'simliklar karantini sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

34-modda. O'simliklar karantini to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

O‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



LexUZ sharhi

